

Ilm-fan-ta'lim tizimining rivojida xalqaro baholash usullari foydalanish samaradorligi

Komilova Xurshida Toxirovna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institut DSc doktoranti, dotsent.

Annotatsiya. Maqolada global o'zgarishlar davrida turli darajadagi ta'lim sifatini baholash tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta'lim sifatini baholash, xalqaro baholash usullari foydalanish ta'lim tizimining samaradorligi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash, xalqaro tajriba, ta'lim, ilm-fan, PISA, TIMSS, PIRLS, EGRA, EGMA.

Аннотация. В период глобальных изменений освещены тенденции развития системы оценки качества образования на разных уровнях, оценка качества образования, информация об эффективности системы образования с использованием международных методов оценки.

Ключевые слова: международная оценка, международный опыт, образование, наука, PISA, TIMSS, PIRLS, EGRA, EGMA.

Abstract. In the period of global changes, the development trends of the education quality assessment system at different levels, education quality assessment, information on the effectiveness of the education system using international assessment methods are covered in the article.

Key words: international assessment, international experience, education, science, PISA, TIMSS, PIRLS, EGRA, EGMA.

Globalashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan transformatsion davrda jahondagi ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etmoqda. Ta'lim orqali esa jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712 sonli «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo'yilgan [1; B.13]. Xalq ta'limi tizimining strategik maqsadlari belgilab qo'yilgan va ular quyidagilar: ya'ni umumta'lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg'or Xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish; inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o'quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish belgilangan [1; B.10].

Respublika Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ning bevosita uchinchi bobida «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi Xalqaro dasturlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish» alohida ta'kidlab o'tilgan [1; B.10]. Shuningdek, mazkur konsepsiya asosida «o'quv

muddatlarini o'zgartirmagan holda o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish [1; B.11]»ga muhim e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimining mazmunini sifat jihatdan yangilash, shuningdek, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda «ta'lim berishga kompetentlik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashni ko'zda tutgan holda pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish [1; B.12]» ko'rsatib o'tilgan.

Global o'zgarishlar davrida turli darajadagi ta'lim sifatini baholash tizimining rivojlanish tendensiyalari, ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro solishtirma dasturlarida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim tizimining salohiyatini oshirish imkoniyati sifatida qaraladi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha Xalqaro solishtirma dasturlar natijalarning kompleks tahlillari, o'quvchilarning o'qish, tabiiy fanlar, matematik va ijodiy fikrlash savodxonligini baholash, Xalqaro dasturlar metodologiyasi va baholash mezonlaridan milliy o'quv-uslubiy va o'lchov materiallarini yaratishdan foydalanishga turtki bo'ladi.

Baholash jarayonida aniq fanlardan xorijiy tajriba va xalqaro baholash usullari foydalanish ta'lim tizimining samaradorligi va o'quvchilarning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Baholashda quyidagilarga ahamiyat berish lozim, jumladan:

Natijalarini o'lchash - baholashda o'rganuvchi bilim va ko'nikmalarini aniq o'lchash imkonini berib bunda o'quvchilarning o'rganganlik darajalari va maqsadlar erishishning darajasi aniqlanadi. Ta'lim samaradorligini baholashda o'quvchilar o'zlashtirish darajalari tekshirish orqali erishiladi.

Ta'lim jarayonini rivojlantirish - baholash jarayoni ta'lim jarayonining samaradorligini tahlil qilish va yaxshilash imkonini beradi. O'qituvchilar baholash natijalari asosida o'z pedagogik metodlarini moslashtirishi va darslarni takomillashtirishi mumkin. Bu orqali ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan dars rejalarini ishlab chiqish mumkin.

O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish - baholash o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchini va motivatsiyasini oshiradi. O'quvchilar o'z yutuqlarini ko'rish va baholar olish orqali yanada ko'proq mehnat qilishga undaladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonida faol qatnashishga va yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Individual yutuqlarni kuzatish - baholash o'quvchilarning shaxsiy yutuqlarini va rivojlanishini kuzatishga yordam beradi. O'quvchilarning qaysi sohalarda muvaffaqiyatga erishgani va qaysi sohalarda kamchiliklarga ega ekanligini aniqlash orqali ularning individual ehtiyojlarini va rivojlanishlarini yaxshiroq tushunish mumkin.

Korreksiya - baholash natijalari o'quvchilarning zaif tomonlarini aniqlash va ularga yordam berish uchun zarur bo'lgan korreksiya choralarini ko'rish imkonini beradi. O'qituvchilar baholash orqali o'quvchilarning qaysi sohalarda yordamga muhtojligini bilib, kerakli yordam va qo'llab-quvvatlashni taqdim etishi mumkin.

Ta'lim resurslarini taqsimlash - baholash o'quvchilarning natijalari va rivojlanish darajalarini tahlil qilish orqali ta'lim resurslarini samarali taqsimlash

imkonini beradi. Masalan, resurslar va yordamlarni o'quvchilarning ehtiyojlariga qarab taqsimlash, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishda yordam beradi.

O'qituvchilarni baholash -baholash o'qituvchilarning faoliyatini baholashda ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilarning pedagogik yondashuvlari, dars berish usullari va ta'lim sifatini yaxshilash uchun ko'rsatkichlar taqdim etiladi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi. . Dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA [2; B.1] (O'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholash Xalqaro dasturi), PIRLS [3; B.1] (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi Xalqaro dastur), TIMSS [4; B.1](Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi Xalqaro monitoring) kabi qator Xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi asosiy mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Quyidagi Xalqaro baholash dasturlari mavjud:

- PISA** -o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi
- PIRLS** -matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot
- TIMSS** -maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring
- TALIS** -o'qitish va o'rganish xalqaro tadqiqoti
- EGRA** -boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha
- EGMA** ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi

TIMSS - (Trends in International Mathematics and Science Study) maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Bu tadqiqot o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich maktabning 4 sinfi va tayanch maktabning 8 sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini dunyoning turli mamlakatlarida qiyosiy o'rganishni maqsad qilib qo'ygan va olingan natijalarga muvofiq har bir mamlakatning ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va yutuqlarini e'tirof etadi.

Baholash jarayoni ta'lim tizimining samarali ishlashida, o'quvchilarning rivojlanishida, ta'lim sifatini oshirishda va ta'lim siyosatini baholashda juda muhim ahamiyatga ega. Baholash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniq o'lchash, ta'lim jarayonini yaxshilash, motivatsiyani oshirish, va shaxsiy yutuqlarni kuzatish imkonini beradi. Bu jarayon ta'lim tizimining umumiy samaradorligini oshirish va ta'lim maqsadlariga erishishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi №PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son
2. Programme for International Student Assessment. <https://www.oecd.org>
3. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). <https://pirls.bc.edu>
4. Trends in International Mathematics and Science Study. <https://timss.bc.edu>